



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib



Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar- oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **9909,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan 7,7 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **874,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 94,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **9034,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 94,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **992,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 66,1 %)

Tarkibiy qism, ulushlarda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar- oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **9909.1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan **5,9 %** ga kamaydi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **91,2 %** va yirik korxonalar hissasiga **8,8 %** to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH


Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani **25,0 %** ulush bilan **2 473,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bandixon tumani **0,4 %** ulush bilan **37,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar- oktabr oylari yakuniga ko'ra, **9034.4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan 5,9 % ga kamaydi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **91,2 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Muzrabot (98,7 %), Qiziriq (97,9 %), Qumqo'rg'on (97,8 %), Boysun (97,1 %), Oltinsoy (96,6 %), Angor (96,5 %) va Sherobod (96,1 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar- oktabr oylariga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Bandixon (105,1 %) Denov (103,8 %), tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiyy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	9909.1	94,1	874,7	94,1	9034,4	94,1
Termiz shahri	1930,6	98,5	556,3	83,5	1374,3	106,2
<i>tumanlar:</i>			-			
Oltinsoy	491,3	88,7	16,8	146,0	474,5	87,5
Angor	386,6	91,7	13,7	95,3	372,9	91,6
Bandixon	37,9	105,1	1,6	-	36,3	100,5
Boysun	407,1	88,4	11,7	63,2	395,4	89,5
Muzrabot	447,2	83,8	5,7	3,0 m	441,5	83,0
Denov	2473,7	103,8	106,3	1,9 m	2367,4	101,7
Jarqo'rg'on	520,1	87,2	24,7	96,4	495,4	86,8
Qumqo'rg'on	471,6	89,3	10,4	66,8	461,2	90,0
Qiziriq	419,2	85,1	9,0	71,0	410,2	85,5
Sariosiyo	495,2	90,1	22,4	110,9	472,8	89,3
Termiz	146,7	74,9	6,4	17,6	140,3	87,8
Uzun	356,2	94,7	27,7	9,3 m	328,5	88,0
Sherobod	487,9	93,1	19,1	88,2	468,8	93,3
Sho'rchi	837,9	90,7	42,9	1,5 m	795	88,7

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **5,9 %** ga kamaydi va **874,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,8 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **9 034.4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar- oktabr oylariga nisbatan **5,9 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,2 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Muzrabot (98,7 %), Qiziriq (97,9 %), Qumqo'rg'on (97,8 %), Boysun (97,1 %) Oltinsoy (96,6 %), va Angor (96,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (28,8 %), Uzun (7,8%), Sho'rchi (5,1 %) va Jarqo'rg'on (4,7 %) tumanlarida kuzatildi.



**SURXONDARYO VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON
BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**


2020- yil yanvar-oktabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 741,8** ming so'm (2019- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan 7,8 % ga ko'paydi).

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Termiz shahri (10 677,9 ming so'm), Denov (6 403,6 ming so'm) va Sho'rchi (4 001,2 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	3 741,8	107,8
Termiz sh.	10 677,9	74,8
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	2 772,7	128,2
Angor	2 913,4	93,7
Bandixon	504,5	
Boysun	3 512,2	106,9
Muzrabot	3 149,5	125,7
Denov	6 403,6	129,4
Jarqo'rg'on	2 377,1	105,4
Qumqo'rg'on	2 007,7	127,0
Qiziriq	3 670,4	161,0
Sariosiyo	2 357,1	125,2
Termiz	1 894,7	86,5
Uzun	2 071,9	104,2
Sherobod	2 512,3	93,5
Sho'rchi	4 001,2	103,5

Asosiy tarkib, foizda



Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **992,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **33,9** % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **515,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **78,0** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **477,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **55,9** %) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo

Shu jumladan:


Dehqon bozorlari

Chorva bozorlari

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar- oktabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **515,2** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **477,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	992,7	66,1	515,2	78,0	477,5	55,9
Termiz sh. tumanlar:	62,2	73,6	62,2	92,2	-	-
Oltinsoy	108,1	69,1	58,5	95,7	49,5	48,6
Angor	39,6	58,9	23,7	59,5	16	58,0
Bandixon	15	-	2,5	-	12,5	-
Boysun	68,5	69,3	33,5	66,2	35	76,0
Muzrabot	111,9	60,7	33	52,0	78,9	68,5
Denov	112	62,6	102,8	83,8	9,2	16,8
Jarqo'rg'on	59,9	53,3	35,1	66,1	24,8	41,4
Qumqo'rg'on	93,2	73,8	56,9	145,8	36,3	37,6
Qiziriq	55,6	52,9	12,2	30,6	43,5	70,2
Sariosiyo	136,5	84,1	23,6	70,2	112,9	105,5
Termiz	19,9	59,3	0,6	65,3	19,3	56,2
Uzun	29,6	53,5	17,4	91,9	12,2	31,1
Sherobod	22,1	61,1	20,8	83,4	1,3	3,4
Sho'rchi	58,6	58,3	32,3	72,0	26,3	37,0

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



8,3
mlrd. so'm

Tuzlamalar



220,8
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



23,9
mlrd. so'm

**Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)

63,9
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



22,3
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

12,5
mlrd. so'm



Tuxum

101,2
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

18,2
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

2020- yilning yanvar- oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **515,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**220,8** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

6,6
mlrd. so'm



Ziravorlar

30,0
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

6,2
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar- oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **477,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **356,7** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **98,7** mlrd. so'mni, otlar **11,6** mlrd. so'mni, parrandalar **2,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020- yilning yanvar- oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,5 % ni tashkil etib, 155,5 mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan 16,7 % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 89,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda




	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	155,5	83,3	17,1	78,1	138,4	84,0
Termiz sh.	55,1	93,2	0,1	53,9	55,0	93,4
<i>tumanlar:</i>	-	-	-	-	-	-
Oltinsoy	3,7	76,6	-	-	3,7	76,6
Angor	6,6	81,0	-	-	6,6	81,0
Bandixon	0,3	77,5	-	-	0,3	77,5
Boysun	3,8	88,7	-	-	3,8	88,7
Muzrabot	3,5	72,8	-	-	3,5	72,8
Denov	20,9	88,4	-	-	20,9	88,4
Jarqo‘rg‘on	5,3	69,3	-	-	5,3	81,7
Qumqo‘rg‘on	4,7	79,6	-	-	4,7	79,6
Qiziriq	3,7	74,3	-	-	3,7	74,3
Sariosiyo	20,6	88,9	16,3	92,6	4,3	77,0
Termiz	7,7	54,2	0,6	21,8	7,1	62,1
Uzun	3,9	78,5	-	-	3,9	78,5
Sherobod	8,4	76,3	-	-	8,4	76,5
Sho‘rchi	7,2	77,2	-	-	7,2	77,2

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2019- yil
yanvar-
oktabr

2020- yil
yanvar-
oktabr




2019- yil yanvar- oktabr oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 0,3 % dan 0,1 % ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi 155,5 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 83,3 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha 155,4 mlrd. so'm nodavlat mulkka (99,9 %) hamda 0,1 mlrd. so'm (0,1 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi.


	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	155 514,0	100,0	155 364,5	99,9	149,5	0,1
Termiz sh.	55 136,1	35,4	54 986,6	99,7	149,5	0,3
tumanlar:		0,0				
Oltinsoy	3 660,5	2,4	3 660,5	100,0	-	-
Angor	6 561,3	4,2	6 561,3	100,0	-	-
Bandixon	340,8	0,2	340,8	100,0	-	-
Boysun	3 797,3	2,4	3 797,3	100,0	-	-
Muzrabot	3 467,2	2,3	3 467,2	100,0	-	-
Denov	20 910,4	13,4	20 910,4	100,0	-	-
Jarqo'rg'on	5 314,0	3,4	5 314,0	100,0	-	-
Qumqo'rg'on	4 703,2	3,0	4 703,2	100,0	-	-
Qiziriq	3 737,1	2,4	3 737,1	100,0	-	-
Sariosiyo	20 616,6	13,2	20 616,6	100,0	-	-
Termiz	7 713,8	5,0	7 713,8	100,0	-	-
Uzun	3 935,5	2,5	3 935,5	100,0	-	-
Sherobod	8 408,8	5,4	8 408,8	100,0	-	-
Sho'rchi	7 211,4	4,6	7 211,4	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar- oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 326,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan **1,2 %** ga ko'paydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **900,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **124,2 %**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 425,6** mlrd. so'mni (**9,4 %** ga kamayish), tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Bandixon (3,4 m) va Qumqo'rg'on (156,0%), Sho'rchi tumanlarida (117,4%) kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	2326,2	101,2	900,6	124,2	1 425,6	90,6
Termiz sh.	653,9	109,1	239,7	122,9	414,2	102,4
<i>tumanlar:</i>	-	-	-	-	-	-
Oltinsoy	55,6	74,8	37,3	91,6	18,3	54,5
Angor	67,2	73,7	7,0	49,7	60,3	78,1
Bandixon	7,8	344,4	6,3		1,5	67,0
Boysun	16,2	74,0	1,2	107,4	15,0	72,1
Muzrabot	60,6	73,8	53,7	73,8	6,9	73,8
Denov	554,9	104,5	103,9	111,3	451,0	103,1
Jarqo'rg'on	245,2	97,2	148,9	121,6	96,3	74,2
Qumqo'rg'on	149,9	156,0	124,0	212,8	25,9	68,5
Qiziriq	74,1	96,6	48,0	121,0	26,1	70,6
Sariosiyo	164,7	114,7	62,3	525,5	102,4	77,7
Termiz	131,1	83,9	5,6	40,5	125,4	88,2
Uzun	19,5	61,7	5,2	67,6	14,2	59,7
Sherobod	55,0	68,4	20,6	54,5	34,4	80,8
Sho'rchi	70,3	117,4	36,8	221,8	33,5	77,4

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar- oktabr oylari yakuniga ko'ra, 1425,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan 9,4 % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 61,3 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Termiz (95,7 %), Boysun (92,4 %), Angor (89,6 %) , Denov (81,3 %) , Uzun (73,1 %), tumanlarida yuqori bo'lgan.

